

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI
AKADEMIYASI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSC.31/30.12.2019.Yu.25.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI
AKADEMIYASI**

MENGLIYEV FAXRIDDIN VALIYEVICH

**MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYATI ORGANLARINING
HUQUQBUZARLIKLAR PROFILAKTIKASI SOHASIDAGI FAOLIYATINI
TAKOMILLASHTIRISH (SURXONDARYO VILOYATI MISOLIDA)**

**12.00.14 – Huquqbuzarliklar profilaktikasi.
Jamoat xavfsizligini ta’minlash. Probatsiya faoliyati**

**Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of the abstract of the dissertation of the doctor of philosophy (PhD)

Mengliyev Faxriddin Valiyevich

Mahalliy davlat hokimiyati organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasidagi faoliyatini takomillashtirish (Surxondaryo viloyati misolida)..... 3

Менглиев Фахриддин Валиевич

Совершенствование деятельности органов государственной власти на местах в сфере профилактики правонарушений (на примере Сурхандарьинской области)..... 27

Mengliev Fakhriddin Valievich

Improving the activities of local government bodies in the field of crime prevention (on the example of the Surkhandarya region)..... 53

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works 58

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI
AKADEMIYASI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSC.31/30.12.2019.Yu.25.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI
AKADEMIYASI**

MENGLIYEV FAXRIDDIN VALIYEVICH

**MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYATI ORGANLARINING
HUQUQBUZARLIKLAR PROFILAKTIKASI SOHASIDAGI FAOLIYATINI
TAKOMILLASHTIRISH (SURXONDARYO VILOYATI MISOLIDA)**

**12.00.14 – Huquqbuzarliklar profilaktikasi.
Jamoat xavfsizligini ta’minlash. Probatsiya faoliyati**

**Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.4.PhD/Yu778 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Akademiya Ilmiy kengashi veb-sahifasi (<https://akadmvd.uz/oz/ads>) va Ziyonet axborot ta'lim portalida (<http://library.ziyonet.uz/uz>) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	Xujakulov Siyovush Baxtiyorovich yuridik fanlar doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	Zakirova Adina Gulyamovna yuridik fanlar doktori, professor Ziyodullayev Muzaffar Ziyodullayevich yuridik fanlar doktori, professor
Yetakchi tashkilot:	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.31/30.12.2019.Yu.25.02 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil 22-may kuni soat 14:30 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100197, Toshkent sh., Intizor ko'chasi, 68. Tel./faks: (71) 265-22-52/ (71) 265-17-53, e-mail: info@akad.mvd.uz).


Dissertatsiya bilan O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (AD1571-raqami bilan ro'yxatga olingan) (Manzil: 100197, Toshkent sh., Intizor ko'chasi, 68. Tel.: (71) 265-22-52.


Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 10-may kuni tarqatildi.

(2025-yil 10-maydagi 10-raqamli reestr bayonnomasi).




A.S. Tursunov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,
yuridik fanlar doktori, professor


A.D. Xusanov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy
kotibi, yuridik fanlar bo'yicha falsafa
doktori (PhD), dotsent


Sh.A. Kulmatov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, yuridik fanlar
doktori, professor

KIRISH (doktorlik (PhD) dissertatsiyasining annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda qonuniylikni mustahkamlash, jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish, shaxs huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishga yo'naltirilgan huquqbuzarliklar profilaktikasi tizimini shakllantirish obyektiv zaruratga aylanib bormoqda. Shu bois, huquqbuzarliklar profilaktikasining samarali mexanizmini ishlab chiqish hamda amaliyotga tatbiq etish – davlat huquqiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Dunyodagi shaharlar va mamlakatlar to'g'risidagi eng yirik ma'lumotlar bazasi – Numbeo tomonidan 2025-yil uchun e'lon qilingan dunyoning turli mamlakatlaridagi jinoyatchilik hamda hayot uchun xavflilik darajasi haqidagi statistik ma'lumotlar (Crime Index for Country)ga ko'ra 131 ta mamlakatning 85 tasi (64,8 foizi)da jinoyatchilikning umumiy darajasi o'rtacha va undan yuqori deb baholangan. Shundan, 26 ta mamlakatda jinoyatdan jabrlanish ehtimoli yuqori ekanligi qayd etilgan¹. Bu kabi ko'rsatkichlar huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi hamda unda ishtirok etuvchi organlarning o'zaro hamkorligini kuchaytirish, shu jumladan mahalliy davlat hokimiyati organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasidagi vakolatlarini tizimli tashkil etish borasidagi ilmiy asoslangan yangi yondashuvlarni ishlab chiqishni taqozo etmoqda.

Jahonda muayyan ma'muriy hududlarda huquqbuzarliklar profilaktikasining samarali amalga oshirilishini ta'minlash, bu borada manzilli chora-tadbirlarni o'z ichiga olgan xavfsiz hudud, xavfsiz shahar singari dasturlarni ishlab chiqish kabi masalalar ilmiy tadqiqotlarning muhim obyektlaridan hisoblanadi. Ayniqsa, huquqbuzarliklarni aniqlash, ularga chek qo'yish, shuningdek huquqbuzarliklarning oldini olishda mahalliy omillarni hisobga olish, mahalliy davlat organlari hamda huquqni muhofaza qiluvchi organlarning mahalliy bo'g'inlarini huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasidagi faoliyatini samarali tashkil etish, yangicha ishlash usullarini joriy qilish, jinoyatchilikka qarshi kurashishga yo'naltirilgan hokimiyat organlari hisobidan moliyalashtiriladigan grant loyihalarini amalga oshirish kabilar bilan bog'liq muammolarning ilmiy asoslangan yechimlarini topishga qaratilgan tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Yangi O'zbekistonda mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlarini xalqning chinakam "ovoziga" aylantirish, ijro organlari faoliyatini transformatsiya qilib, hududiy boshqaruvni "aholi manfaatlariga xizmat qilish" prinsipi asosida yo'lga qo'yish, "obod va xavfsiz mahalla" prinsipi asosida mahallalarda ijtimoiy profilaktikani amalga oshirish, davlat organlarining jamoatchilik tuzilmalari bilan maqsadli hamkorligi bo'yicha qator ishlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son Farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston — 2030" strategiyasining 4.1-yo'nalishida "Xalq xizmatidagi davlat boshqaruvini tashkil etish va jamoatchilik boshqaruvini takomillashtirish" nazarda tutilgan bo'lsa, 2025-yil 3-yanvardagi PQ-1-son qarorda esa, 2025-yilda respublika mahallalarida xavfsiz muhit yaratish va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tizimining samaradorligini oshirish bo'yicha manzilli chora-tadbirlar dasturi hamda mahallalarda kriminogen vaziyatni barqarorlashtirish hamda yangicha yondashuvlar asosida huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tizimini tashkil etish bo'yicha hududiy "yo'l xaritalari"da belgilangan chora-tadbirlarning o'z vaqtida va samarali amalga oshirilishini ta'minlash, bu borada maqsadli

¹ <https://worldpopulationreview.com/country-rankings/crime-rate-by-country>

ko'rsatkichlarga erishish yuzasidan mas'uliyat davlat organlari, muassasalari bilan bir qatorda, shaxsan mahalliy hokimliklarning birinchi rahbarlari zimmasiga yuklatildi. Bu esa, yuqorida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash hamda mahalliy davlat hokimiyati organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasidagi faoliyatida "Barcha sa'y-harakatlar inson qadri uchun" degan ustuvor g'oya asosida mutlaqo yangi mexanizmlarni joriy etish maqsadida ilmiy izlanishlar olib borish muhim ahamiyat kasb etishini ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasining Yangi tahrirdagi konstitutsiyasi (2023), Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi (1993), "Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to'g'risida"gi (2010), "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi (2014) qonunlari, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi (2021), "O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi (2021) Farmonlari hamda "2025-yilda respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tizimi samaradorligini yanada oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-1-son Qarori (2025) hamda sohaga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining II. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Mamlakatimiz olimlaridan X.E. Axmedov, M.J. Eshnazarov, M.B. Isabayev, I.Ismailov, G.S. Ismailova, A.A. Maxmudov, G'.S. Qarshiyev, Q.A. Saitqulov, Q.U. Umidullayev, Sh.M. Xamdama, S.B. Xujakulov, Sh.U. Yakubov, F.M. Zaripov, M.Z. Ziyodullayevlar tomonidan mahalliy davlat hokimiyati va o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatiga oid ayrim jihatlar, huquqbuzarliklar profilaktikasini takomillashtirishda davlat organlari hamda jamoatchilik o'rtasidagi hamkorlikni tashkil etish masalalari tadqiq etilgan. Xususan, ichki ishlar organlarining tayanch punktlarini boshqarish nuqtayi nazaridan M.Z. Ziyodullayev tomonidan, huquqbuzarliklarning umumiy profilaktikasi nuqtayi nazaridan S.B. Xujakulov tomonidan, ichki ishlar organlarining huquqbuzarliklar viktimologik profilaktikasi bo'yicha faoliyati nuqtayi nazaridan Q.A. Saitqulov tomonidan, ma'muriy nazorat ostidagi shaxslarga oid profilaktik chora-tadbirlar nuqtayi nazaridan X.E. Axmedov tomonidan, huquqbuzarliklarning maxsus profilaktikasini takomillashtirish nuqtayi nazaridan M.J. Eshnazarov tomonidan, mahalliy davlat hokimiyati va o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini liberallashtirishning davlat-huquqiy yo'nalishlari G.S. Ismailova tomonidan, davlat va fuqarolik jamiyati institutlari hamkorligi nuqtayi nazaridan Sh.U. Yakubov tomonidan, mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyati samaradorligini oshirish nuqtayi nazaridan M.B. Isabayev tomonidan, mahalliy davlat hokimiyati tizimini tashkil etishda hokimiyatlar bo'linish prinsipi nuqtayi nazaridan Sh.M. Xamdama tomonidan, huquqbuzarlik sodir etishga moyil voyaga yetmagan o'quvchilar o'rtasida profilaktika ishlarni amalga oshirish nuqtayi nazaridan F.M. Zaripov tomonidan, mahalliy vakillik organlarining nazorat faoliyati nuqtayi nazaridan

A.A. Maxmudov tomonidan, mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyatining samaradorligini baholash nuqtayi nazaridan Z.S. Israilova tomonidan, mahalliy ijro hokimiyati organlari faoliyati samaradorligini baholashning nazariy-huquqiy nuqtayi nazaridan Q.U. Umidullayev tomonidan, ichki ishlar organlari patrul-post xizmati saf bo‘linmalarining faoliyatini boshqarish nuqtayi nazaridan S.S. Sharipov tomonidan, ichki ishlar organlari faoliyatini tashkil etishning ma‘muriy-huquqiy jihatlari A. Eraliyev tomonidan o‘rganilgan.

Xorijiy mamlakatlarda mahalliy hokimiyat organlarining huquqiy maqomi hamda ular tomonidan huquqbuzarliklar profilaktikasiga oid ayrim masalalar P. Heywood va A. Smith, S. Cornell va J. Kalt, A. Astrauskas, R. Fazliu, H. Wollmann, R. Aijaz, Chun-Pin Su, Ch. Lu, Kh. Osmanova, A. Sauer kabi olimlar tomonidan, MDHga a‘zo davlatlarda esa Ye.V. Avramova, A.V. Astukalov, M.I. Butirina, L.P. Volkova, L.I. Gadelshina, S.V. Goncharov, I.G. Jurina, M.Yu. Zenkov, Yu.V. Kondrashov, A.P. Melnikov, S.B. Nanba, A.I. Cherkasov kabi olimlar tomonidan o‘rganilgan².

Biroq, Yangi O‘zbekistonda demokratik islohotlarni chuqurlashtirish sharoitida, amaldagi qonunchilik hamda qonunni qo‘llash amaliyoti, ilg‘or xorijiy tajribalar asosida mahalliy davlat hokimiyati organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasidagi faoliyatini takomillashtirish masalalari kompleks tadqiq etilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasining 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan ilmiy-tadqiqot dasturiga muvofiq, IIV Akademiyasining dolzarb muammolarni ilmiy-tadqiq etish yo‘nalishlaridan biri hisoblangan “Huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyati” doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi mahalliy davlat hokimiyati organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasidagi faoliyatining nazariy asoslari, tashkiliy va huquqiy mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan konseptual ahamiyatga ega taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

mahalliy boshqaruvda huquqbuzarliklar profilaktikasining nazariy metodologik asoslarini tahlil qilish;

huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirishda mahalliy davlat hokimiyati organlari ishtirokinining o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish;

mahalliy davlat hokimiyati organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasidagi faoliyatining huquqiy asoslarini tahlil qilish;

mahalliy davlat hokimiyati organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasidagi faoliyatining tashkiliy-institutsional asoslarini o‘rganish;

huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasida mahalliy davlat organlari faoliyatiga doir xorij tajribasini tahlil qilish;

mahalliy davlat hokimiyati organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasidagi faoliyatini takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlarini aniqlashtirish va tegishli taklif hamda mulohazalarni ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti mahalliy davlat hokimiyati organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasidagi faoliyatiga oid ijtimoiy-huquqiy munosabatlardir.

² Bu va boshqa manbalar dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatida keltirilgan.

Tadqiqotning predmeti mahalliy davlat hokimiyati organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasidagi faoliyati bo'yicha konseptual yondashuvlar, ilmiy-nazariy qarashlar, sohaga doir normativ-huquqiy hujjatlar, ularni qo'llash amaliyoti (Surxondaryo viloyatidagi), ayrim xorijiy davlatlarning tajribalaridir.

Tadqiqotning usullari. Mazkur tadqiqotda ilmiy bilishning konseptual, muammoli-maqсадli, qiyosiy-huquqiy, tarixiy-huquqiy, mantiqiy yondashuv, statistik tahlil va sotsiologik so'rovlar o'tkazish, induktiv va deduktiv tahlil, tizimlashtirish kabi usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

fuqarolar jamoat xavfsizligini ta'minlash, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashishdagi faol ishtiroki vaqtida o'rtacha og'ir, og'ir tan jarohati olgan yoki halok bo'lganida (vafot etganida) mahalliy budjet mablag'lari hisobidan bir martalik nafaqa shaklida rag'batlantirilishi lozimligi asoslangan;

tegishli viloyat hokimlarining qarorlariga asosan jinoyat salmog'i yuqori bo'lgan mahalla fuqarolar yig'inlariga ichki ishlar, milliy gvardiya hamda prokuratura organlarining hududiy rahbarlarini birlashtirish va ularga ushbu hududlarda jamoat xavfsizligini ta'minlash, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish bo'yicha aniq manzilli choralar ko'rib borish bo'yicha vazifalar belgilanishi lozimligi asoslangan;

jinoyat sodir qilishga moyilligi bor og'ir ahvoldagi shaxslar, ayniqsa, voyaga yetmagan va yoshlarni vakolatli davlat organlarining jamoatchilik tuzilmalari va huquqni muhofaza qilish organlari vakillariga individual birlashtirish zarurligi asoslangan;

hududlarda ijtimoiy profilaktika obyektlarini aniq toifalarga ajratish va ushbu toifadagi shaxslarning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda ular bilan manzilli profilaktik ishlarni amalga oshirish lozimligi asoslangan;

uyushmagan yoshlar orasida huquqbuzarliklarning oldini olish va jinoyatchilikka qarshi kurashish ishlarini yagona yondashuv asosida tashkil etish va bunda huquqbuzarliklar yoki boshqa g'ayriijtimoiy xatti-harakatlarni sodir etishga moyil bo'lgan hamda jinoyat sodir etgan uyushmagan yoshlarning bandligini ta'minlash uchun mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan shart-sharoitlar yaratishga alohida e'tibor qaratish lozimligi asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

"Mahalliy davlat hokimiyati organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasidagi faoliyati" tushunchasiga mualliflik ta'rifi berilgan;

institutsional asoslarga ko'ra mahalliy davlat hokimiyati organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasidagi faoliyatining tasnifi ishlab chiqilgan;

mahalliy davlat hokimiyati organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasidagi faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari belgilab berilgan;

huquqbuzarliklar profilaktikasiga ta'sir etuvchi mahalliy omillar doirasiga aniqlik kiritilgan;

O'zbekiston Respublikasining 2014-yil 14-maydagi "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi qonunining 8-moddasini yangi tahrirda bayon etish taklifi ishlab chiqilgan;

O'zbekiston Respublikasining 2010-yil 29-sentabrda qabul qilingan "Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to'g'risida"gi qonunining 6-moddasini quyidagi mazmundagi o'ninchi va o'n birinchi xatboshilar bilan to'ldirish zarurati asoslantirilgan;

O‘zbekiston Respublikasining “Voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to‘g‘risida”gi, “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi, “Ekstremizmga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi, “Jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan ayrim toifadagi shaxslar ustidan ma‘muriy nazorat to‘g‘risida”gi, “Odam savdosiga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi qonunlarida mahalliy davlat hokimiyati organlarining tegishli vakolatlarini belgilash zarurligi isbotlangan;

Surxondaryo viloyatida mahalliy davlat hokimiyati organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasidagi faoliyati samaradorligini oshirish maqsadida elektron hisoblash mashinalari uchun dastur yaratilgan va rasmiy ro‘yxatdan o‘tkazilgan O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi DGU 41583. 07. (2024) (210) Talabnoma raqami: DGU 202409520).

“Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashining doimiy komissiyalari to‘g‘risida”gi hamda “Viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklarining boshqaruv apparatlari to‘g‘risida”gi namunaviy nizomlarga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish maqsadga muvofiqligi asoslab berilgan;

“Huquqbuzarliklar profilaktikasi kuni”ni muvofiqlashtirish hokimliklar tomonidan amalga oshirilishini belgilash, shuningdek tuman va shahar hokimliklarining boshqaruv apparatlari tuzilmasida huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi, harbiy safarbarlik va favqulodda vaziyatlar masalalari guruhlarini faoliyatini yo‘lga qo‘yish borasida tavsiyalar ishlab chiqilgan;

mahalliy vakillik va hamda mahalliy ijro organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasiga oid vakolatlarini ajratish lozimligi isbotlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalari xalqaro huquq va milliy qonunchilik normalari, huquqni qo‘llash amaliyotining ilg‘or hamda ijobiy tajribalari, sohaga doir empirik va statistik ma‘lumotlar tahlili, respublika hududlarida o‘tkazilgan ijtimoiy so‘rov natijalarini umumlashtirish orqali isbotlangan hamda ishlab chiqilgan ilmiy xulosa, taklif va tavsiyalar aprotatsiyadan o‘tkazilib, yetakchi xorijiy hamda milliy nashrlarda e‘lon qilingan. Olingan natijalar esa vakolatli organlar tomonidan tasdiqlangan va amaliyotga joriy etilgan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, uning natijasida erishilgan ilmiy xulosalar mahalliy davlat hokimiyati organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasiga oid faoliyati bo‘yicha yangi ilmiy tushuncha va ta‘riflar hamda ilmiy xulosalar ishlab chiqish, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasida konstitutsiyaviy huquq, ma‘muriy huquq va kriminologiya hamda huquqbuzarliklar profilaktikasi fanlarining ilmiy-nazariy asoslarini boyitishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalarning mahalliy davlat hokimiyati organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasiga oid faoliyatini tashkiliy-strategik va tashkiliy-taktik jihatdan takomillashtirishga xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Tadqiqot ishi bo‘yicha olingan ilmiy natijalar quyidagilarda o‘z ifodasini topgan:

fuqaro jamoat xavfsizligini ta‘minlash, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashishdagi faol ishtiroki vaqtida o‘rtacha og‘ir, og‘ir tan jarohati olgan (yetkazilgan)da, shuningdek halok bo‘lganida (vafot etganida) huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi organ rahbarining taqdimnomasi asosida

chiqarilgan idoralararo komissiya qaroriga ko'ra Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlari mablag'lari hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan rag'batlantirilishi to'g'risidagi takliflardan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 30-yanvardagi 36-son qarori bilan Fuqarolar va jamoat tashkilotlarini huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashishdagi faol ishtiroki uchun rag'batlantirish tartibi to'g'risidagi nizomni 17⁸-band bilan to'ldirishda foydalanilgan (*O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi kotibiyatining Axborot-tahlili va yuridik ta'minlash departamentining 2024-yil 26-yanvardagi 12/1-1949-sonli ma'lumotnomasi*). Ushbu taklifning joriy etilishi jamoat xavfsizligini ta'minlash, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashishdagi faol ishtirok etgan fuqarolarning mahalliy budjetlar mablag'lari hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan ijtimoiy himoya qilishning huquqiy tartibini belgilashga xizmat qilgan;

jinoyat salmog'i yuqori bo'lgan mahalla fuqarolar yig'inlariga ichki ishlar, milliy gvardiya hamda prokuratura organlarining rahbarlarini biriktirish haqidagi takliflardan Surxondaryo viloyat hokimining 2023-yil 14-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Uyushmagan yoshlar orasida huquqbuzarliklarning oldini olish va jinoyatchilikka qarshi kurashish ishlarini yagona yondashuv asosida tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2023-yil 13-sentabrdagi 468/33-son qarorining ijrosi haqida"gi 486-8-0-Q/23-son qarorining 1 va 2-ilovalarini ishlab chiqishda foydalanilgan (*Surxondaryo viloyat hokimligining 2024-yil 31-oktyabrdagi 01/11-103-son ma'lumotnomasi*). Ushbu taklifning joriy etilishi Surxondaryo viloyatining jinoyat salmog'i yuqori bo'lgan mahalla fuqarolar yig'inlarida huquqbuzarliklarning oldini olish tizimini takomillashtirishga xizmat qilgan;

jinoyat sodir qilishga moyilligi bor og'ir ahvoldagi shaxslar, ayniqsa, voyaga yetmagan va yoshlarni vakolatli davlat organlarining jamoatchilik tuzilmalari va huquqni muhofaza qilish idoralari vakillariga individual biriktirish lozimligi haqidagi taklifdan Surxondaryo viloyat hokimining 2023-yil 14-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Uyushmagan yoshlar orasida huquqbuzarliklarning oldini olish va jinoyatchilikka qarshi kurashish ishlarini yagona yondashuv asosida tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2023-yil 13-sentabrdagi 468/33-son qarorining ijrosi haqida"gi 486-8-0-Q/23-son qarorining 1 va 2-ilovalarini ishlab chiqishda foydalanilgan (*Surxondaryo viloyat hokimligining 2024-yil 31-oktyabrdagi 01/11-103-son ma'lumotnomasi*). Ushbu taklifning joriy etilishi Surxondaryo viloyatida jinoyat sodir qilishga moyilligi bor og'ir ahvoldagi shaxslar, ayniqsa, voyaga yetmagan va yoshlar bilan huquqbuzarliklarning yakka tartibdagi profilaktikasini samarali tashkil etish, bu borada ushbu toifadagi shaxslarni jamoatchilik tuzilmalari va huquqni muhofaza qilish idoralari vakillariga individual biriktirish bo'yicha mahalliy davlat hokimiyati organining rolini belgilash va mustahkamlashga xizmat qilgan;

ijtimoiy profilaktika obyektlarini 16 ta alohida toifaga ajratgan holda ular bilan amalga oshiriladigan ishlarni manzilli tarzda belgilash lozimligi haqidagi taklifdan Surxondaryo viloyat hokimining 2023-yil 22-sentabrdagi "Surxondaryo viloyati hududida kelgusida jinoyatlarni jilovlash va alohida toifadagi shaxslar bilan "ijtimoiy profilaktika" prinsipi asosida hamkorlikdagi profilaktik tadbirlarni tizimli tashkil etish to'g'risida"gi 434-8-0-Q/23-son qarorining 1 va 2-ilovalarini ishlab chiqishda foydalanilgan (*Surxondaryo viloyat hokimligining 2024-yil 31-oktyabrdagi 01/11-104-son ma'lumot-*

nomasi). Ushbu taklifning joriy etilishi Surxondaryo viloyatida ijtimoiy profilaktika obyektlariga nisbatan olib borilayotgan profilaktikaning ta'sirchanligini oshirish maqsadida profilaktik chora-tadbirlarni manzilli ishlab chiqish va amalga oshirilishini mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan ta'minlanishiga yo'naltirilgan tashkiliy-huquqiy mexanizmlarning amaliyotga joriy etilishiga xizmat qilgan;

uyushmagan yoshlar orasida huquqbuzarliklarning oldini olish va jinoyatchilikka qarshi kurashish ishlarini yagona yondashuv asosida tashkil etish va bunda huquqbuzarliklar yoki boshqa g'ayriijtimoiy xatti-harakatlarni sodir etishga moyil bo'lgan hamda jinoyat sodir yetgan uyushmagan yoshlarning bandligini ta'minlash uchun shart-sharoitlar yaratishga alohida e'tibor qaratish zarurligi haqidagi taklifdan Surxondaryo viloyat hokimining 2023-yil 22-sentabrdagi "Surxondaryo viloyati hududida kelgusida jinoyatlarni jilovlash va alohida toifadagi shaxslar bilan "ijtimoiy profilaktika" prinsipi asosida hamkorlikdagi profilaktik tadbirlarni tizimli tashkil etish to'g'risida"gi 434-8-0-Q/23-son qarorining 1 va 2-ilovalarini ishlab chiqishda foydalanilgan (*Surxondaryo viloyat hokimligining 2024-yil 31-oktyabrdagi 01/11-104-son ma'lumotnomasi*). Ushbu taklifning joriy etilishi Surxondaryo viloyatida mahalliy davlat hokimiyati organlarining boshqaruvi va nazorati ostida huquqbuzarliklar yoki boshqa g'ayriijtimoiy xatti-harakatlarni sodir etishga moyil bo'lgan hamda jinoyat sodir etgan uyushmagan yoshlarning bandligini ta'minlash tizimini takomillashtirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalarda aprobatsiyadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 14 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalari chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta maqola (6 ta respublika va 2 ta xorijiy jurnalda) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, oltita paragrafni o'z ichiga olgan uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 150 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi, dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi, muammoning o'rganilganlik darajasi, tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti, usullari, ilmiy yangiligi va amaliy natijasi, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, joriy qilinishi, aprobatsiyasi hamda e'lon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi yoritilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Mahalliy davlat hokimiyati organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasidagi faoliyatining mohiyati va o'ziga xos jihatlari**" deb nomlangan va mazkur bobda mahalliy boshqaruvda huquqbuzarliklar profilaktikasining nazariy metodologik asoslari hamda huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirishda mahalliy davlat hokimiyati organlari ishtirokining o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilingan.

Bu borada muallif davlat boshqaruvida qabul qilingan qarorlarning samarali ijrosi bevosita mahalliy darajadagi tashkiliy va huquqiy mexanizmlarning qay darajada tashkil

etilganligiga bog'liq ekanligini qayd etadi.

Mahalliy boshqaruv umumiy boshqaruv faoliyatining tarkibiy qismi ekanligini ta'kidlab, uning quyidagi xususiyatlarga egaligi asoslab berilgan:

birinchidan, mahalliy hokimiyat o'zining alohida konsepsiyasiga ega bo'lib, demokratik va fuqarolik jamiyati instituti sifatida o'z vakolatini mahalliy boshqaruvga yo'naltirishi;

ikkinchidan, mahalliy boshqaruv tizimida mahalliy hududda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy jarayonlar boshqaruv obyekti sifatida ko'rib chiqilishi;

uchinchidan, mahalliy boshqaruv tashkilotlari rahbar kadrlari va mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlarining saylangan mansabdorlari ushbu tizimdagi boshqaruv subyektlari sifatida qaralishi kabilarga.

Tahlillarga asoslanib, mahalliy boshqaruv tabiatan murakkab bo'lib, u o'zining shakllari va oqibatlari, ijtimoiy-siyosiy hodisalari bilan xilma-xildir. U ijtimoiy rivojlanishga, shuningdek siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa omillarga katta ta'sir ko'rsatadi, deb xulosaga kelingan.

Dissertantning fikricha, mahalliy boshqaruvning o'ziga xos xususiyati – bu mahalliy hududlarning asosiy omili sifatida inson resurslariga asoslangan mahalliy kengashlarning ijtimoiy-siyosiy salohiyatidan maksimal va samarali foydalanish bilan belgilanadi. Mahalliy boshqaruv hududiy jamoalarning mentaliteti, an'analari, ma'naviy-axloqiy qadriyatlariga asoslanib, bevosita tegishli hududlarning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib amalga oshiriladi. Bu esa huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasida hudud tajribalarining shakllanishiga olib keladi. Qolaversa, mahalliy boshqaruv birinchidan boshqaruvning umumiy jihatlarini, ikkinchidan hududga xos mahalliy jihatlarini o'z ichiga qamrab oladi.

Dissertatsiyada 1993-yilda joriy etilgan hozirgi mahalliy boshqaruv konsepsiyasining nazariy va amaliy jihatlarini to'la yakunlanmaganligi, ayrim tarmoqlarda qo'l boshqaruvi tizimi amal qilayotganligi qayt etilib, hozirgacha mahalliy boshqaruvda huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'yicha hali yagona yondashuvlar hamda amaliyot shakllanmaganligiga alohida urg'u berilgan. Shu asosda, hududdagi kriminogen vaziyatdan kelib chiqib huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'yicha hududlarning metodikalarini ishlab chiqish va joriy etish mahalliy davlat hokimiyati organlarining asosiy vazifalaridan biri bo'lishi kerakligi tahlil qilingan.

Dissertatsiyada J.Dj. Akramov, X.E. Axmedov, A.D. Babadjanov, A. Eraliyev, M.B. Isabayev, G.S. Ismailova, Z.S. Israilova, H.M. Jo'rabekova, A.A. Maxmudov, Q.A. Saitqulov, S.S. Sharipov, Q.U. Umidullayev, Sh.M. Xamdamova, A.X. Xolov, S.B. Xujakulov, Sh.U. Yakubov, F.M. Zaripov, hamda M.Z. Ziyodullayev va shu kabi olimlarning huquqbuzarliklar profilaktikasi haqidagi fikrlari o'rganilib, ilmiy jamoatchilik orasida mahalliy davlat hokimiyati organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasidagi o'rni asosan "moddiy javobgar" hamda "tashkilotchi" sifatida tushunilishi asoslab berilgan.

Muallifning fikricha, mahalliy davlat hokimiyati organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasida imkoniyatlari juda kengligi norma ijodkorlari va ilmiy jamoatchilik e'tiboridan chetda qolmoqda. Chunki, bugungi kunda huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi organlar hamda muassasalarning (ichki ishlar organlari, prokuratura organlari, davlat xavfsizlik xizmati organlari, Milliy gvardiya organlari, adliya organlari) aksariyatining mahalliy bo'linmalari mahalliy davlat hokimiyati organlariga

bo'ysunmaydi. Bu esa mahalliy davlat hokimiyati organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyatini to'laqonli amalga oshirishga imkon bermayapti.

Shu bois, S.B. Xujakulov mahalliy davlat hokimiyati organlarini huquqbuzarliklar profilaktikasida ishtirok etuvchi subyektlari toifasiga kiritisa, X.E. Axmedov ma'muriy nazorat ostidagi shaxslarga oid profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshirishda ichki ishlar organlari bilan bevosita hamkorlik qiluvchi subyektlar qatoriga qo'shadi. M.Z.Ziyodullayev esa mahalliy davlat hokimiyati organlarini tayanch punktlari negizida hamkorlik qiladigan subyekt sifatida talqin qilgan.

Biroq muallif ushbu yondashuvlarni tor deb tushunib, bu borada mahalliy davlat hokimiyati organlari tayanch punktlari faoliyatini tashkil etish hamda moddiy-texnik ta'minlashdagi asosiy subyektlardan biri ekanligini e'tibordan chetda qoldirmaslik zarurligini ta'kidlaydi. Bu borada, S.S. Sharipovning "tuman (shahar)lar miqiyosida jamoat joylarida va alohida sharoitlarda shartnomaviy-huquqiy asosda jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta'minlash bilan shug'ullanuvchi patrul-post xizmati saf bo'linmalarining faoliyatini tashkil etishga doir mahalliy hokimliklarning vakolatlarini kengaytirish lozimligi yuzasidan takliflar"ini ham qo'llab-quvvatlaydi. Shularga asoslanib, mahalliy davlat hokimiyati organlarini huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasida nafaqat ishtirok etuvchi, balki ushbu yo'nalishdagi faoliyatni bevosita amalga oshiruvchi, shuningdek huquqbuzarliklar profilaktikasining yo'nalishlarini belgilab beruvchi hamda uni muvofiqlashtiruvchi subyekt sifatida tushunish hamda jamiyatda huquq-tartibotni saqlash, shu jumladan huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasidagi vakolatlarini yanada kengaytirish lozim, deb xulosa qilgan.

Yuqoridagilarni inobatga olib, dissertant induktiv va deduktiv tahlillarga tayanib mahalliy boshqaruvda huquqbuzarliklar profilaktikasining bugungi kundagi holati bo'yicha quyidagi xulosalarga kelgan:

birinchidan, qonunchilik hujjatlarida mahalliy davlat hokimiyati organlari huquqbuzarliklar profilaktikasiga oid faoliyatining huquqiy asoslari to'la shakllanmagan. Bu borada turli qonunchilik hujjatlarida tarqoq normalar belgilangan. Umuman olganda huquqbuzarliklar profilaktikasi institutining o'zi hali to'la shakllanmagan bir paytda mahalliy davlat hokimiyati organlarining ham bu boradagi faoliyati to'g'risida gapirishga hali erta.

"Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi qonunda mahalliy davlat hokimiyati organlarining bu boradagi vakolatlari nihoyatda umumiy tarzda belgilangan. Shu bilan birga "Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to'g'risida"gi qonunda mahalliy davlat hokimiyati organlarining vakolatlari mutlaqo belgilanmagan. Holbuki bugungi kunda voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasini amalga oshiruvchi asosiy subyektlaridan biri mahalliy davlat hokimiyati organlari hisoblanadi;

ikkinchidan, mahalliy davlat hokimiyati organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasidagi o'rni aniq belgilanmagan va bu boradagi ayrim vakolatlarini amalga oshirishning aniq tashkiliy va huquqiy mexanizmlari yaratilmagan.

"Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi qonunga binoan mahalliy davlat hokimiyati organlarining bu oradagi vakolatlaridan biri sifatida "tegishli hududda huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi organlar hamda muassasalarning o'zaro hamkorligini ta'minlashi" nazarda tutilgan. Ammo huquqbuzarliklar profilaktikasiga oid faoliyatni muvofiqlashtiruvchi kengashlarning hududiy

bo‘linmalari (Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish bo‘yicha, Odam savdosiga qarshi kurashish va munosib mehnat masalalari bo‘yicha, Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha hamda Bolalar masalalari bo‘yicha komissiyalar) mahalliy davlat hokimiyati organlari negizida tashkil etilmagan, qolaversa huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi organlar hamda muassasalarning mahalliy bo‘linmalari mahalliy davlat hokimiyati organlariga bo‘ysunmaydi. Bundan tashqari, mahalliy davlat hokimiyati organlari negizida huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi organlar hamda muassasalar mahalliy bo‘linmalarining faoliyatini muvofiqlashtiruvchi institutsional asoslar yaratilmagan (*so‘rovga jalb etilgan 48 foiz respondentlar ham ushbu xulosani qo‘llab fikr-mulohazalarini bildirishgan*);

uchinchidan, mahalliy davlat hokimiyatining ikkita instituti: mahalliy vakillik va mahalliy ijro organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasidagi vakolatlari ajratilmagan. Huquqbuzarliklar profilaktikasi, jinoyatchilikka qarshi kurashish hamda jamoat xavfsizligini ta‘minlash bilan bog‘liq qonunchilik hujjatlarida “mahalliy davlat hokimiyati organlarining vakolatlari” deb ko‘rsatilgan. Holbuki mahalliy davlat hokimiyati organlari mahalliy vakillik hamda mahalliy ijro organlaridan iborat bo‘lib ularning kompetensiyalari mutlaqo boshqacha hisoblanadi. Qolaversa, Konstitutsiyaning yangilanishi munosabati bilan hokimiyatlarning bo‘linish prinsipini mahalliy darajada tashkil etish, bunda hokim va mahalliy Kengash raisi faoliyatining bir-biridan xoli amalga oshirilishi yuzasidan qonunchilik hujjatlarini ishlab chiqish, mahalliy vakillik va mahalliy ijro organlarining vakolatlarini ajratish, bitta shaxsning ham mahalliy vakillik ham mahalliy ijro organlarining rahbari bo‘lmasligi to‘g‘risidagi qoidalar kiritildi. Shu sababli huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasida mahalliy vakillik hamda ijro organlarining vakolatlarini ajratish talab etiladi;

to‘rtinchidan, mahalliy vakillik organlari tomonidan huquqbuzarliklar profilaktikasi-ning ayrim subyektlarining (tegishli prokurorlar, IIV hududiy bo‘linmalari rahbarlari, sog‘liqni saqlashni boshqarish hududiy organlari, tuman (shahar) tibbiyot birlashmalari rahbarlari, hududiy adliya boshqarmalari va tumanlar (shaharlar) adliya bo‘limlari boshliqlarining) hisobotlari va axborotlarini eshitish tizimi yaratilgan. Bu mahalliy vakillik organlari uchun ma‘lum richaglarni taqdim etadi. Ammo bu hali muvofiqlashtirish degani emas;

beshinchidan, mahalliy davlat hokimiyati organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyati sohasidagi ishtiroki asosan ushbu faoliyatni moddiy-texnik ta‘minlashga yo‘naltirilgan. Xususan, Jamoat xavfsizligi konsepsiyasida mahalliy davlat hokimiyati organlarining “jamoat xavfsizligini bevosita ta‘minlovchi subyektlarni moddiy-texnik ta‘minlash, ularning xodimlarini ijtimoiy himoya qilish darajasini oshirish bo‘yicha choratadbirlarni amalga oshirishi”, “Ichki ishlar organlarining tayanch punktlari to‘g‘risida”gi nizomga asosan “tayanch punktlari uchun yer maydoni va binolarni ajratish, qurilish, ta‘mirlash va kapital ta‘mirlash, shuningdek mebel bilan jihozlash shahar va tuman hokimliklari tomonidan mahalliy budjetdan ajratiladigan mablag‘lar hisobidan amalga oshirilishi” nazarda tutilgan;

oltinchidan, mahalliy davlat hokimiyati organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshiruvchi aniq institutsional tuzilmalari mavjud emas. Xususan xalq deputatlari kengashlaridagi doimiy guruhlarda hamda hokimliklarning markaziy apparati strukturasi bunday tuzilmalar mavjud emas. Xususan, viloyatlar va Toshkent shahri

hokimliklarining boshqaruv apparatlari tuzilmasida huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi, harbiy safarbarlik va favqulodda vaziyatlar masalalari guruhlari faoliyati yo‘lga qo‘yilgan. Ammo mazkur guruhlar huquqbuzarliklar profilaktikasiga oid faoliyatni muvofiqlashtirish bo‘yicha aniq vakolatlariga ega emas.

Vaholanki, dissertant, mahalliy davlat hokimiyati organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasida hali “ishga solinmagan” ko‘plab imkoniyatlari mavjudligini nafaqat huquqbuzarliklar profilaktikasini muvofiqlashtiruvchi, balki bevosita amalga oshiruvchi subyekt sifatida ham namoyon bo‘lishini ta’kidlaydi.

Mahalliy davlat hokimiyati organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasidagi faoliyatining mohiyatini o‘rganish, ushbu faoliyatga nisbatan quyidagi mazmunda ta’rif berishga asos yaratadi:

Mahalliy davlat hokimiyati organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasidagi faoliyati – bu, *tegishli mahalliy hududlarda huquq-tartibotni saqlash hamda mustahkamlash, huquqbuzarliklarni aniqlash, ularga barham berish, shuningdek huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablarini va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash, bartaraf etish faoliyatini tashkiliy, huquqiy, metodik hamda moddiy-texnik ta’minlashga qaratilgan boshqaruv faoliyatidir.*

(Ushbu ta’rif so‘rovga jalb etilgan 79 foiz respondentlar tomonidan ma’qullangan).

Dissertant, mahalliy davlat hokimiyati organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasidagi faoliyati tushunchasiga nisbatan berilgan ushbu ta’rifga asoslanib, ushbu yo‘nalishdagi faoliyatning maqsadiga quyidagicha oydinlik kiritgan:

“Mahalliy davlat hokimiyati organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasidagi faoliyatining maqsadi – bu, tegishli mahalliy hududlarda huquqbuzarliklar profilaktikasi subyektlari faoliyatini tashkil etish, muvofiqlashtirish hamda huquqiy, metodik va moddiy-texnik ta’minlashdan iborat.

(Ushbu ta’rif so‘rovga jalb etilgan 74 foiz respondentlar tomonidan ma’qullangan).

Shuningdek, mazkur bobda dissertant bugungi kundagi mavjud vaziyat tahlillariga asoslanib, mahalliy davlat hokimiyati organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasidagi vazifalari tizimi *(ushbu tizim so‘rovga jalb etilgan 81 foiz respondentlar tomonidan ma’qullangan)* va huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasidagi ishtirokining o‘ziga xos jihatlari ishlab chiqilgan.

Dissertant, paragraf so‘nggida ichki ishlar organlari rahbarlarining huquqbuzarliklarning oldini olish va ularning profilaktikasi holati, shuningdek, jamoat xavfsizligi haqidagi hisobotlarini eshitish amaliyoti joriy etilgan bo‘lsa-da, hisobot qaysi tartib va mezonlar asosida amalga oshirilishi, bir so‘z bilan aytganda, hisobot berishning tashkiliy-huquqiy mexanizmi normativ-huquqiy hujjatlarda o‘z ifodasini topmaganligi masalasiga e’tibor qaratgan. Bu borada, ichki ishlar organlari mansabdor shaxslarining hisobotlari eshitalayotganda ular zimmasiga yuklatilgan vazifalar bajarilishi yuzasidan ko‘rilayotgan choralari va ishlar natijasi tanqidiy muhokama qilinishi, ular faoliyatining samaradorligiga alohida baho berilishi, shuningdek egallab turgan lavozimiga loyiq yoki noloyiqligi haqida tavsiyalar qabul qilinishi belgilab qo‘yilgan bo‘lsa-da, ammo faoliyatning samaradorligini baholashning aniq mezonlari ishlab chiqilmagan va amaliyotga tatbiq etilmagan, deb xulosa qilingan.

Dissertantning fikricha, aynan shuning uchun ham Surxondaryo viloyati hokimligining 2024-yil 30-yanvardagi VI-82-28-8-0-K/24-son qarori “Surxondaryo viloyati Ichki ishlar boshqarmasi boshlig‘ining viloyat hududida huquqbuzarliklarning oldini olish va

ularning profilaktikasi holati, shuningdek, jamoat xavfsizligi haqidagi hisobotini eshitish to'g'risida" deb emas, balki "O'zbekiston Respublikasining "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi 2016-yil 16-sentabrdagi qonuniga asosan, fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini, jismoniy va yuridik shaxslarning mulkini, konstitutsiyaviy tuzumni himoya qilish, qonun ustuvorligini, shaxs, jamiyat va davlatning xavfsizligini ta'minlash, shuningdek, huquqbuzarliklarning oldini olish va profilaktikasi bo'yicha amalga oshirilgan ishlar yuzasidan viloyat Ichki ishlar boshqarmasi boshlig'ining hisoboti to'g'risida" deb nomlangan. Bu esa, mahalliy davlat hokimiyati organlarida ijro mexanizmi yo'qligi sababli huquqbuzarliklarning oldini olish va ularning profilaktikasi holati, shuningdek, jamoat xavfsizligi haqidagi hisobotini eshitish masalasiga o'zi bilganicha yondashib kelinmoqda, degan xulosaning shakllanishiga asos yaratadi.

So'nggi 5 yil davomida Surxondaryo viloyatida huquqbuzarliklar profilaktikasini tashkil etish maqsadida ishlab chiqilib tasdiqlangan 30 dan ortiq chora-tadbirlar dasturi, yo'l xaritalari tahlil qilinganida, ular turlicha shakllarda ishlab chiqilgani, tegishli subyektlar zimmasiga vazifalar yuklatilgani, ammo ijro va nazoratning samarali mexanizmi mavjud bo'lmaganligi bois 2020–2023-yillar davomida yetarli darajada ijobiy natijalarga erishilmasdan kelingan.

Shu bois, mahalliy davlat hokimiyati organlariga huquqbuzarliklarning oldini olish va ularning profilaktikasi holati, shuningdek, jamoat xavfsizligi haqida hisobot berishning tashkiliy-huquqiy mexanizmini yaratish zarurligi bo'yicha tavsiya kiritilgan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi "**Mahalliy davlat hokimiyati organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasidagi faoliyatining huquqiy va tashkiliy asoslari**" deb nomlangan bo'lib ushbu bobda mahalliy davlat hokimiyati organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyatining huquqiy hamda tashkiliy-institutsional asoslari tahlil qilingan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2019-yil 10-yanvar kuni mamlakatimiz tinchligi va jamoat xavfsizligini ta'minlash, jinoyatchilikning oldini olish borasidagi kelgusi vazifalarga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishida davlatimiz rahbari tomonidan "*endi hokimlar ham har kuni o'z hududidagi jinoyatlar bilan bog'liq vaziyatni shaxsan muhokama qilib borishi, shuningdek, joylardagi xalq deputatlari kengashlari jinoyatlar bilan bog'liq vaziyatni tahlil qilib, ularning kelib chiqish sabablari va shart-sharoitlarini bartaraf etishga o'z hissasini qo'shishi kerakligi*" ta'kidlangan edi. Biroq bugungi kunga qadar mahalliy davlat hokimiyati organlarining bu boradagi faoliyatini tashkil etishning huquqiy va tashkiliy institutsional asoslari yaratilmagani isbotlangan.

Dissertant mahalliy davlat hokimiyati organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasidagi vakolatlari turli qonunchilik hujjatlarida tarqoq belgilanganligiga e'tibor qaratgan. Bu borada "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi qonunning 25-moddasida viloyat, tuman va shahar hokimlarining vakolatlaridan biri sifatida "*jamoat tartibiga rioya etilishi va jinoyatchilikka qarshi kurash, fuqarolarning xavfsizligini ta'minlash, ularning huquqlarini himoya qilish va salomatligini muhofaza etish bilan bog'liq chora-tadbirlar ko'rish, tabiiy ofatlar, epidemiyalar va boshqa favqulodda hollarda tegishli ishlarni tashkil etish*" nazarda tutilgan bo'lsa-da, mazkur qonun qabul qilingan 30 yildan beri bu vakolat hamon o'zgarmasdan kelayotganligini tanqid qilgan.

Muallif tomonidan mahalliy davlat hokimiyati organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasidagi vakolatlarga oid qonunchilik hujjatlarini guruhlash bo'yicha

tasnifi ishlab chiqilgan va asoslantirilgan.

Dissertatsiyada mahalliy davlat hokimiyati organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyati sohasidagi vakolatlariga oid qonunchilik hujjatlari tahlili asosida quyidagi xulosaga kelingan:

birinchisi, mahalliy davlat hokimiyati organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasiga oid vakolatlari nihoyatda umumiy tarzda belgilangan bo‘lib, mahalliy davlat hokimiyati organlarining imkoniyatlarini to‘liq safarbar qilish imkonini bermaydi, shu bilan birga ushbu normalarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri amalga oshirishning imkoni mavjud emas va buning uchun tegishli qonunosti hujjatlari qabul qilinishi talab etiladi. Shu sababli mahalliy davlat hokimiyati organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasiga oid ko‘plab vakolatlari xuddiki “muzlatilgan”dek hanuzgacha harakatga kelgani yo‘q;

ikkinchisi, mahalliy davlat hokimiyati organlari huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasida asosan “moddiy javobgar” hamda “tashkilotchi” sifatida ishtirok etmoqda. Albatta mahalliy budjet hisobidan huquqbuzarliklar profilaktikasiga oid faoliyatni moddiy va moliyaviy ta‘minlash muhim. Ammo mahalliy davlat hokimiyati organlari ixtiyorida boshqa hech bir davlat organlarida mavjud bo‘lmagan muhim ma‘muriy resurslar mavjudligi e‘tibordan chetda qolmoqda;

uchinchisi, bevosita huquqbuzarlar profilaktikasiga oid yana bir qator muhim qonunlarda (“Voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to‘g‘risida”gi, “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi, “Ekstremizmga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi, “Jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan ayrim toifadagi shaxslar ustidan ma‘muriy nazorat to‘g‘risida”gi, “Odam savdosiga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi qonunlar) esa mahalliy davlat hokimiyati organlarining vakolatlari (yoki ishtiroki) umuman belgilanmagan. Biroq shunga qaramasdan, amalda mahalliy davlat hokimiyati organlari mazkur qonunlar bilan tartibga solinishi nazarda tutilgan ijtimoiy munosabatlarda asosiy subyektlardan biri sifatida ishtirok etib kelmoqda.

Dissertatsiyada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining hujjatlari mahalliy davlat hokimiyati organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasidagi faoliyatining muhim jihatlarini belgilab berishiga alohida e‘tibor qaratilgan. Dissertantning fikriga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlarida mahalliy davlat hokimiyati organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasidagi faoliyati aniq tartibga solinishi bilan birga boshqa normativ-huquqiy hujjatlarning qabul qilinishiga ham zamin yaratgan. Chunki O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining bu boradagi hujjatlarida konseptual masalalar ham o‘z ifodasini topgan bo‘lib, ular mahalliy davlat hokimiyati organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasidagi faoliyatining yangi yo‘nalishlarini ochib berishga xizmat qilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining tegishli qarorlarida ham mahalliy davlat hokimiyati organlarining huquq-tartibotni saqlash faoliyatining huquqiy asoslari belgilab qo‘yilgan bo‘lsa-da, ammo ushbu hujjatlarda mahalliy davlat hokimiyati organlarining bu boradagi faoliyatiga oid asosiy masalalar e‘tibordan chetda qolganligi tahlil qilingan.

Bundan tashqari, huquqbuzarliklar profilaktikasi amaliyotida “huquqbuzarliklar profilaktikasi”, “ijtimoiy profilaktikasi”, “huquqbuzarliklarning oldini olish”, “huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish”, “jamoat xavfsizligini ta‘minlash” kabi tushunchalarning mazmuniga aniqlik kiritilmagani, bu esa, o‘z navbatida, huquqbuzarliklar profilaktikasining mohiyatini anglashda turli tushunmovchiliklarni keltirib chiqarayotgani

tanqidiy tahlil qilinib, mavjud vaziyat mahalliy davlat hokimiyati organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasidagi faoliyati samaradorligiga ham jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatayotgani haqida xulosa qilingan va shuning uchun ham eng avvalo, ushbu tushunchalarning mazmun-mohiyatiga oydinlik kiritib, shu asosda normativ-huquqiy hujjatlarda ularni huquqiy ta'riflash va amaliyotda amalga oshirishning tashkiliy-huquqiy mexanizmini joriy etish tavsiya etilgan.

Dissertatsiyada Surxondaryo viloyatida huquqbuzarliklar profilaktikasiga oid mahalliy davlat hokimiyati organlarining hujjatlari quyidagi besh guruhga bo'lingan holda tahlil qilingan: *birinchisi* – xalq deputatlari kengashlarining ichki ishlar organlari rahbarlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'yicha hisobotlariga oid qarorlari; *ikkinchisi* – adliya organlari rahbarlari, tegishli hududiy prokurorlar, sog'liqni saqlashni boshqarish hududiy organlari, tuman (shahar) tibbiyot birlashmalari rahbarlarining hisobotlariga oid qarorlari; *uchinchisi* – xalq deputatlari kengashlarining to'g'ridan-to'g'ri huquqbuzarliklar profilaktikasiga oid qarorlari; *to'rtinchisi* – hokimlarning huquqbuzarliklar profilaktikasiga oid qarorlari; *beshinchisi* – hokim raisligidagi yig'ilish bayonnomalari.

Bu o'rinda hokim raisligidagi yig'ilish bayonnomalarining huquqiy maqomi hamda ta'sir kuchi bo'yicha yagona yondashuv mavjud emasligi asoslab berilgan. Chunki, "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi qonunga ko'ra yig'ilish bayonnomalari normativ-huquqiy hujjat hisoblanmaydi. Biroq shunga qaramasdan, Surxondaryo viloyat hokimi raisligidagi yig'ilish bayonnomalarining qaror qismlarida normativ-huquqiy hujjatlarga xos bo'lgan vazifalar belgilanganligi tanqid qilingan. Bu borada, viloyat hokimligi raisligida o'tkazilgan 2023-yil 29-martdagi, 2023-yil 3-maydagi, 2023-yil 13-iyundagi, 2023-yil 16-avgustdagi, 2023-yil 9-sentabrdagi, 2023-yil 13-sentabrdagi, 2023-yil 13-oktabrdagi majlislarda huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlarga oid qarorlar qabul qilingani aniq faktlar bilan asoslantirilgan.

Muallifning fikricha, aslida hokim rahbarligidagi yig'ilish bayonnomalarida normativ-huquqiy hujjatlarga xos vazifalar belgilanmasligi, bunday yig'ilish bayonnomalarida huquqbuzarliklar profilaktikasiga oid boshqa qonunchilik hujjatlarining ijrosi bilan bog'liq masalalar bo'yicha qarorlar belgilanishi zarur.

Shu asosda dissertatsiyada mahalliy davlat hokimiyati organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasidagi faoliyatining samaradorligi ko'p jihatdan tashkiliy-institutsional asoslarning qay darajada shakllantirilganligiga bog'liqligi, shuning uchun ham huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish bo'yicha ishlarni mahalliy davlat hokimiyat organlari tomonidan mahalliy darajada muvofiqlashtirishning huquqiy va tashkiliy-institutsional asoslarini yaratish zarurligi isbotlangan (*ushbu xulosa so'rovga jalb etilgan 79 foiz respondentlar tomonidan ma'qullangan*).

Mahalliy davlat hokimiyati organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasidagi faoliyati tahlillariga hamda mantiqiy yondashuv usuliga asosan ushbu yo'nalishdagi faoliyat quyidagi shakllarda amalga oshirilib kelinayotgani bo'yicha xulosa qilingan:

viloyatlar, shaharlar va tumanlar hokimliklari boshqaruv apparatlari orqali;

xalq deputatlari Kengashlarining guruhlari orqali (*ushbu xulosa so'rovga jalb etilgan 88 foiz respondentlar tomonidan ma'qullangan*).

Ma'lumki, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklarining boshqaruv apparatlari tuzilmasidagi tashkiliy-nazorat guruhi, huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi, harbiy safarbarlik va favqulodda vaziyatlar masalalari guruhi, Bolalarni himoya qilish masalalari kotibiyati, yuridik xizmat, axborot-tahlil guruhi, ishlar

boshqarmasi, hokim o‘rinbosarlarining kotibiyatlari, tuman hokimliklarida esa tashkiliy-nazorat guruhi, sohalar bo‘yicha bosh va yetakchi mutaxassislar, Bolalarni himoya qilish shu‘basi huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasida ma‘lum funksiyalarni bajaradi.

Biroq, viloyatlar, shaharlar va tumanlar hokimliklari boshqaruv apparatlarida hokimlikning huquqbuzarliklar profilaktikasiga oid funksiyalarini yaxlit mexanizm sifatida amalga oshirishning imkoni mavjud emas. Shu sababli ham dissertant mantiqiy yondashuv usulini qo‘llash asosida hokimliklarning huquqbuzarliklar profilaktikasiga oid faoliyati qo‘l boshqaruviga asoslanib qolmoqda, deb xulosaga kelgan.

Dissertantning fikricha, bugungi kunda Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar kengashlari tarkibidagi Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha doimiy komissiyasi huquqbuzarliklar profilaktikasiga mas‘ul bo‘lsa-da ammo bu boradagi vazifalarni bajarishning funksional asoslari yaratilmagan. Xalq deputatlari kengashlarining huquqbuzarliklar profilaktikasiga oid kompleks va strategik xarakterga ega qarorlarini qabul qilish amaliyoti to‘liq va tizimli ravishda yo‘lga qo‘yilmaganligi bu tizimda “vakolatlarning uvol bo‘lishi”ga olib kelmoqda.

Shu bois, dissertatsiyada tizimlashtirish usulini qo‘llab, huquqbuzarliklar profilaktikasi bo‘yicha xalq deputatlari kengashlari tarkibidagi doimiy komissiyalarning vakolatlarini qayta ko‘rib chiqish va tizimlashtirish lozimligi asoslangan.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Mahalliy davlat hokimiyati organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasidagi faoliyatini takomillashtirish masalalari”** deb nomlangan bo‘lib, ushbu bobda huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasida mahalliy davlat organlari faoliyatiga doir xorij tajribasi tahlil qilingan hamda mahalliy davlat hokimiyati organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasidagi faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan. Xususan, O‘zbekiston Respublikasining 2014-yil 14-maydagi “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi qonunining 8-moddasini yangi tahrirda bayon etish taklifi ishlab chiqilgan (*ushbu ta‘rif so‘rovga jalb etilgan 81 foiz respondentlar tomonidan ma‘qullangan*).

Dissertatsiyada xalqaro hamda xorijiy tajribada mamlakatimizdagi singari fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari hamda mahalliy davlat hokimiyati organlari bir-biridan ajratilmaganligiga alohida e‘tibor qaratilgan.

Dissertatsiyada xorijiy mamlakatlarda mahalliy davlat organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasiga oid faoliyati quyidagi modellar asosida qiyosiy-huquqiy tahlil qilingan:

anglo-sakson modeli (AQSh, Buyuk Britaniya, Kanada, Avstraliya, Yangi Zelandiya va boshq.);

kontinental (fransuz) modeli (Fransiya, Italiya, Belgiya, Ispaniya, Polsha, Bolgariya, Turkiya, Mongoliya, Lotin Amerikasining bir qator davlatlari, Yaqin Sharq);

aralash tUSDagi model (Germaniya, Avstriya, Yaponiya);

iberiya modeli (Braziliya, Portugaliya, Meksika va Lotin Amerikasining ispan tilida muloqot qiladigan boshqa davlatlari);

sotsialistik ittifoq modeli (Kuba, Xitoy, Shimoliy Koreya kabi davlatlarda saqlab qolingan).

Dissertant, milliy huquq tizimimizga nisbatan ancha yaqin tajribaga ega bo‘lgan mamlakatlar – post sovet mamlakatlarining mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasidagi faoliyatini ham o‘rgangan.

Tadqiqotchining fikricha, mazkur mamlakatlarda ham ushbu yo‘nalishda o‘ziga xos tajriba to‘plangan. Xususan, Rossiya Federatsiyasida federal organlar huquqbuzarliklar profilaktikasiga oid munitsipal qonunlarni qabul qilish vakolatiga ega, shuningdek huquqbuzarliklar profilaktikasiga oid faoliyatni muvofiqlashtiruvchi organlarni tuzadi, o‘z hududida huquqbuzarliklar profilaktikasi subyektlarining hamkorligini ta‘minlaydi.

Belarus Respublikasida esa mahalliy ijro organlari huquqbuzarliklar profilaktikasiga oid bevosita choralarni ham amalga oshirish vakolatiga ega. Shu bilan birga Belarus Respublikasida huquqbuzarliklar profilaktikasi bo‘yicha hududiy dasturlarning mazmuniga nisbatan aniq talablar qo‘yilgan.

Qozog‘iston Respublikasida esa mahalliy vakillik va mahalliy ijro organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasidagi vakolatlari ajratilgan.

Qirg‘iz Respublikasida mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlari o‘z hududida huquqbuzarliklar profilaktikasi subyektlari ishiga umumiy rahbarlikni amalga oshiradi.

Dissertatsiyada mahalliy davlat hokimiyati organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasidagi vakolatlarini takomillashtirish yuzasidan quyidagi ustuvor yo‘nalishlar bo‘yicha takliflar ilgari surilgan:

Birinchi yo‘nalish - yangilangan Konstitutsiya asosida joylarda hokimlar va xalq deputatlari Kengashlari vakolatlari taqsimlanishiga asoslangan davlat hokimiyatini tashkil etishning yangi modeli joriy etilayotganligi munosabati bilan hokimliklar va xalq deputatlari kengashlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasidagi vakolatlarini ajratish lozimligi bo‘yicha.

(Bunda xalq deputatlari kengashlariga huquqbuzarliklar profilaktikasiga oid tashkiliy-strategik, hokimlik apparatiga esa tashkiliy-taktik vakolatlar taqdim etilishi kerakligi nazarda tutiladi);

Ikkinchi yo‘nalish – mahalliy davlat hokimiyati organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasidagi faoliyatining yagona huquqiy asoslarini shakllantirish lozimligi bo‘yicha.

(Bunda, “Voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to‘g‘risida”gi, “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi, “Ekstremizmga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi, “Jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan ayrim toifadagi shaxslar ustidan ma‘muriy nazorat to‘g‘risida”gi, “Odam savdosiga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi qonunlarda mahalliy davlat hokimiyati organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasidagi vakolatlarini belgilab qo‘yish zarurligi e‘tiborga olinadi (bu boradagi taklif so‘rovga jalb etilgan 70 foiz respondentlar tomonidan ma‘qullangan));

Uchinchi yo‘nalish – mahalliy davlat hokimiyati organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasidagi faoliyatining tashkiliy yaxlit institutsional asoslarini shakllantirish zarurligi bo‘yicha.

(Bunda tuman va shahar hokimliklari ijro apparatida ham huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi, harbiy safarbarlik va favqulodda vaziyatlar masalalari guruhlarini tashkil etish. Mazkur guruhlarning huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasidagi vakolatlarini kengaytirish va aniq belgilab qo‘yish talab etiladi. Shuningdek, xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar kengashlari tarkibidagi Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha doimiy komissiyalarining huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasidagi vakolatlarini aniq va kengroq shaklda belgilash zarurligiga urg‘u beriladi);

To‘rтинchi yo‘nalish – huquqbuzarliklar profilaktikasida mahalliy davlat hokimiyati organlarining qanday maqomda ishtirok etishini aniq belgilab qo‘yish zarur. Xususan, mahalliy davlat hokimiyati organlari huquqbuzarliklar profilaktikasini mahalliy darajada muvofiqlashtirish hamda boshqarish vakolatiga ega bo‘lishi zarurligi bo‘yicha.

(Bunda Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish bo‘yicha, Odam savdosiga qarshi kurashish va munosib mehnat masalalari bo‘yicha, Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha hamda Bolalar masalalari bo‘yicha komissiyalarning viloyat, tuman va shahar bo‘g‘inlari mahalliy ijro organlari negizida muvofiqlashtirilishi lozim hisoblanadi.

Shuningdek, huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi organlar hamda muassasalarning hududiy bo‘linmalari tashkiliy-strategik darajada mahalliy hokimlik apparatiga bo‘ysunishi va mahalliy vakillik organlari oldida hisobdor bo‘lishi zarurligi nazarda tutiladi);

Beshinchi yo‘nalish – “Mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish to‘g‘risida”gi Yevropa Xartiyasi hamda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning ustuvor yo‘nalishlari va mantig‘idan kelib chiqib huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasida ham hokimiyat vakolatlarini markazdan quyi pog‘onalarga o‘tkazish (detsentralizatsiya) prinsiplari asosida mahalliy davlat hokimiyati organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasidagi vakolatlarini kengaytirish lozimligi bo‘yicha.

(Bunda huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi organlar hamda muassasalarning mahalliy darajadagi umumiy shtatlariga ta’sir qilmagan holda ushbu organlarda xizmatlar rotatsiyalarini tashkil etish, bevosita hokimliklarga bo‘ysunadigan va mahalliy budjet hisobidan moliyalashtiriladigan ichki ishlar, milliy gvardiya, favqulodda vaziyatlar organlarini tashkil etish amaliyotini yo‘lga qo‘yish zarur hisoblanadi).

XULOSA

Mahalliy davlat hokimiyati organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasidagi faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi ilmiy xulosalar, takliflar hamda tavsiyalar ishlab chiqildi:

I. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasidagi faoliyati bilan bog‘liq nazariy qarashlar va bilimlarni yanada boyitishga qaratilgan ilmiy-nazariy xulosalar.

1. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasida imkoniyatlari juda kengligi norma ijodkorlari va ilmiy jamoatchilik e’tiboridan chetda qolgan.

2. Quyidagi tushunchalarning mualliflik ta’riflari ishlab chiqilgan:

“Mahalliy davlat hokimiyati organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasidagi faoliyati – bu, tegishli mahalliy hududlarda huquq-tartibotni saqlash hamda mustahkamlash, huquqbuzarliklarni aniqlash, ularga barham berish, shuningdek huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablarini va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash, bartaraf etish faoliyatini tashkiliy, huquqiy, metodik hamda moddiy-texnik ta’minlashga qaratilgan boshqaruv faoliyatidir”;

“Mahalliy davlat hokimiyati organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasidagi faoliyatining maqsadi – bu, tegishli mahalliy hududlarda huquqbuzarliklar profilaktikasi subyektlari faoliyatini tashkil etish, muvofiqlashtirish hamda huquqiy, metodik va

moddiy-texnik ta'minlashdan iborat".

3. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasidagi vazifalari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

huquqbuzarliklar profilaktikasiga doir davlat dasturlari loyihalariga takliflar ishlab chiqish va shu kabi dasturlarning amalga oshirilishida ishtirok etish;

tegishli mahalliy hududlardagi ijtimoiy va kriminogen vaziyatning tahliliga asoslanib, huquqbuzarliklar profilaktikasiga oid hududiy dasturlarni ishlab chiqish, tasdiqlash va ijro etilishini ta'minlash;

joylarda huquqbuzarliklar profilaktikasini tegishli mahalliy budjetlar mablag'lari hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan moliyalashtirish;

ayrim turdagi huquqbuzarliklar profilaktikasiga, bu turdagi huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablarini va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni bartaraf etishga, ayrim toifadagi shaxslarni aniqlash va ularga profilaktik ta'sir ko'rsatishga qaratilgan maxsus tadbirlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishga doir qarorlar qabul qilish;

huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish bo'yicha ko'riyatgan chora-tadbirlar haqida davlat idoralari va tashkilotlari rahbarlarining hisobotlarini eshitish;

huquqbuzarliklar profilaktikasi subyektlari faoliyatining samaradorligiga baho berish, shuningdek tegishli mansabdor shaxslarning egallab turgan lavozimiga loyiq yoki noloyiqliqi haqida tavsiyalar qabul qilish;

davlat organlarining, shu jumladan huquqni muhofaza qiluvchi, mahalliy davlat hokimiyati organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasidagi ishlarini muvofiqlashtirish;

tegishli mahalliy hududlarda haftaning har payshanba kuni o'tkaziladigan "Huquqbuzarliklar profilaktikasi kuni" keng qamrovli profilaktik tadbirlarni rejalashtirish, tashkil etish va muvofiqlashtirish.

4. Huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasida mahalliy davlat hokimiyati organlari ishtirokining o'ziga xos jihatlari quyidagilardan iborat:

a) huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirishda mahalliy davlat hokimiyati organlari ishtirokchi subyekt ekanligi;

b) huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasida mahalliy davlat hokimiyati organlari ishtirokining tashkiliy-huquqiy mexanizmini mavjud emasligi;

v) huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasida mahalliy davlat hokimiyati organlari tarkibida mahalliy vakillik va mahalliy ijro organlaridan iborat ikkita institutni mujas-samlashtirgan subyekt ekanligi;

g) huquqbuzarliklar profilaktikasida mahalliy vakillik organlari ayrim subyektlarning faoliyat natijalari bo'yicha hisobotlarini tinglash hamda subyektlarga tegishli ta'sir chora-larini qo'llash bo'yicha tavsiyalar kiritish vakolatiga ega subyekt ekanligi;

d) huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasida mahalliy davlat hokimiyati organlarining ishtiroki asosan ushbu yo'nalishdagi faoliyatni moddiy-texnik ta'minlashga yo'naltirilgan-ligi;

ye) mahalliy davlat hokimiyati (mahalliy ijro) organlarida huquqbuzarliklar profilak-tikasi bilan shug'ullanuvchi aniq institutsional tuzilmalarning mavjud emasligi.

5. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasidagi faoliyati quyidagi institutsional asoslarga ko'ra amalga oshiriladi: a) hokimlik apparatlari tomonidan; b) xalq deputatlari kengashlari tomonidan.

6. Quyidagilar mahalliy davlat hokimiyati organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasiga doir faoliyatida muhim ahamiyat kasb etuvchi mahalliy omillar hisoblanadi:

- hududning demografik xususiyatlari;
- hududning geografik joylashuvi;
- hududning transport logistik imkoniyatlari;
- hududning iqtisodiy xususiyatlari;
- aholining bandligi darajasi;
- hududning ichki va tashqi migratsion oqimdagi o'rni;
- hudud aholisining an'anaviy qadriyatlari.

7. Viloyat, tuman va shahar hokimlari quyidagi ikki shakldagi taqdimnomalar kiritish vakolatiga ega bo'lishi lozim:

birinchisi – qonun buzilishi, uning kelib chiqish sabablari va bunga imkoniyat yaratib berayotgan shart-sharoitlarni bartaraf etish to'g'risidagi taqdimnoma (*Ushbu taqdimnoma mazkur qonun buzilishini bartaraf etish vakolatlariga ega bo'lgan tegishli hududiy organga yoki mansabdor shaxsga kiritadi*);

ikkinchisi – huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablarini va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash, bartaraf etish hamda huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablarini va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni bartaraf etish to'g'risidagi taqdimnoma (*Ushbu taqdimnoma huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablarini va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni vakolatlariga ega bo'lgan tegishli hududiy organga yoki mansabdor shaxsga kiritadi*).

II. Normativ-huquqiy hujjatlarni takomillashtirishga qaratilgan takliflar.

1. Hokimiyatlarning taqsimlanish prinsipini mahalliy darajada tashkil etish bo'yicha yuz berayotgan tendensiyalardan kelib chiqib hokimlar va xalq deputatlari Kengashlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasidagi vakolatlarini ajratish lozim. Shundan kelib chiqqan holda O'zbekiston Respublikasining 2014-yil 14-maydagi "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi qonunining 8-moddasini quyidagi tahrirda bayon etish lozim:

"8-modda. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasidagi vakolatlari

Xalq deputatlari Kengashlari:

huquqbuzarliklar profilaktikasiga doir davlat dasturlari loyihalari bo'yicha ishlab chiqilgan takliflarni, shuningdek huquqbuzarliklar profilaktikasiga doir hududiy dasturlar loyihalarini ko'rib chiqadi va ma'qullaydi;

joylarda huquqbuzarliklar profilaktikasini tegishli mahalliy budjetlar mablag'lari hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan moliyalashtirish masalasini ko'rib chiqadi;

huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi organlar hamda muassasalar tegishli mahalliy bo'linmalari rahbarlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'yicha hisobotlari (axborotlari)ni eshitadi;

tegishli hokimlarning huquqbuzarliklar profilaktikasiga doir dasturlar ijrosi bo'yicha hisobotlarini eshitadi;

huquqbuzarliklar profilaktikasi subyektlari faoliyatining samaradorligiga baho beradi, shuningdek tegishli mansabdor shaxslarning egallab turgan lavozimiga loyiq yoki noloyiqligi haqida tavsiyalar qabul qiladi;

ayrim turdagi huquqbuzarliklar profilaktikasiga, bu turdagi uquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablarini va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni bartaraf etishga, ayrim toifadagi shaxslarni aniqlash va ularga profilaktik ta'sir ko'rsatishga qaratilgan maxsus tadbirlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishga doir qarorlar qabul qiladi;

xalq deputatlari Kengashlari qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

Hokimliklar:

huquqbuzarliklar profilaktikasiga doir davlat dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirishda ishtirok etadi;

huquqbuzarliklar profilaktikasiga doir hududiy dasturlar loyihalarini ishlab chiqilishi va ijro etilishini tashkil etadi;

huquqbuzarliklar profilaktikasiga doir hududiy dasturlar loyihalari hamda huquqbuzarliklar profilaktikasiga doir davlat va hududiy dasturlar ijrosi bo'yicha hisobotlarni tegishli xalq deputatlari Kengashlariga taqdim etadi;

aholining ijtimoiy muhofaza qilinishini ta'minlashga, qonuniylik va huquq-tartibotni, fuqarolarning huquqlari va erkinliklari himoya qilinishini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni ko'radi;

tegishli hududda davlat organlarining, shu jumladan huquqni muhofaza qiluvchi, mahalliy davlat hokimiyati organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasidagi ishlarini muvofiqlashtiradi;

hokimliklar qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin".

2. Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizliklar va huquqbuzarliklar profilaktikasida mahalliy davlat hokimiyati organlarining ishtirokini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasining 2010-yil 29-sentabrda qabul qilingan "Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to'g'risida"gi qonunining 6-moddasini quyidagi mazmundagi o'ninchi va o'n birinchi xatboshilar bilan to'ldirish maqsadga muvofiq:

"mahalliy davlat hokimiyati organlarini - ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo'lgan voyaga yetmaganlar hamda ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo'lgan oilalar to'g'risida;

tuman (shahar) hokimliklari Bolalarni himoya qilish shu'basini - ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan to'g'risida".

3. "Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to'g'risida"gi, "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi, "Ekstremizmga qarshi kurashish to'g'risida"gi, "Jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan ayrim toifadagi shaxslar ustidan ma'muriy nazorat to'g'risida"gi, "Odam savdosiga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonunlarda mahalliy davlat hokimiyati organlarining tegishli vakolatlarini belgilab qo'yish.

4. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2024-yil 21-oktabrdagi "Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashining namunaviy reglamentini tasdiqlash to'g'risida"gi QQ-835-IV-sonli Qarorining ilovasi bilan tasdiqlangan "Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashining Namunaviy reglamenti"ning 93-modda 1-qismiga quyidagi mazmundagi 12–15-xatboshilarini kiritish maqsadga muvofiq:

"hududda jamoat tartibini saqlash, jinoyatchilikka qarshi kurashish va fuqarolarning huquqlari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha faoliyatni takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqadi;

korruptsiyaga qarshi kurashish hamda huquqbuzarliklar profilaktikasiga doir hududiy dasturlarning loyihalari ishlab chiqilishini tashkil etadi va ularni dastlabki tarzda muhokama qiladi;

korruptsiya ko‘rinishlarining namoyon bo‘lishiga olib keladigan tizimli muammolar, huquqbuzarliklarning sabablari va ularning sodir etilishiga imkon berayotgan shart-sharoitlar haqida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Sud-huquq masalalari va korruptsiyaga qarshi kurashish qo‘mitasiga hamda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Korruptsiyaga qarshi kurashish va sud-huquq masalalari qo‘mitasiga muntazam ravishda axborot kiritib boradi;

hokimlik bo‘limlari va boshqarmalari, korxonalar, muassasalar va tashkilotlar, shuningdek sud, huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi organlar va muassasalar rahbarlarining komissiya vakolatiga taalluqli masalalar bo‘yicha dastlabki tarzda komissiya majlislarida hisobotlarini (axborotlarini) eshitadi, ular bo‘yicha yakuniy xulosa tayyorlaydi hamda mazkur masalani sessiya muhokamasiga kiritadi”.

5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 27-apreldagi “Viloyatlar, shaharlar va tumanlar hokimliklari boshqaruv apparatlari to‘g‘risidagi namunaviy nizomlarni tasdiqlash haqida”gi 123-son qarorining 1-ilovasi bilan tasdiqlangan “Viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklarining boshqaruv apparatlari to‘g‘risida”gi namunaviy nizomning kichik “a” bandini quyidagi mazmunda bayon etish maqsadga muvofiq:

“a) ma‘muriy masalalar, huquqni muhofaza qilish organlari, o‘zini o‘zi boshqarish va yoshlar siyosati organlari faoliyatini muvofiqlashtirish sohasida:

jamoat xavfsizligining ta‘minlanishini, fuqarolarning huquqlari va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini muhofaza qilinishini, huquqbuzarliklarning barvaqt profilaktikasini ta‘minlash, huquqbuzarliklar sodir etgan shaxslarni, shuningdek huquqbuzarliklardan jabrlanish ehtimoliy yuqori bo‘lgan ijtimoiy rehabilitatsiya qilish masalalarida huquqni muhofaza qilish organlari faoliyatini qonunchilikda belgilangan vakolatlar doirasida muvofiqlashtirish;

huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi organlar hamda muassasalar faoliyati samaradorligini baholash;

huquqbuzarliklar sodir etgan shaxslar bilan ishlash masalalarida huquqni muhofaza qilish va davlatning boshqa organlari va nodavlat tashkilotlar bilan hamkorlik qilishni ta‘minlash;

huquqbuzarliklar profilaktikasi bo‘yicha davlat dasturlarining amalga oshirilishini ta‘minlash;

huquqbuzarliklar profilaktikasi bo‘yicha hududiy dasturlar ishlab chiqilishi, tasdiqlanishi va amalga oshirilishini ta‘minlash;

huquqbuzarliklarning holatini tahlil qilish, huquqbuzarliklar profilaktikasining samarali shakl va usullarini, shuningdek chora-tadbirlarini ishlab chiqish ishlarini tashkil etish;

“huquqbuzarliklar profilaktikasi kuni”ning samarali tashkil etilishini ta‘minlash;

xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish hamda voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi tizimini takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish;

jazolarni ijro etish inspeksiyasiga mahkumlar majburiy jamoat ishlarini o‘tashi mumkin bo‘lgan joylarning (obyektlarning) ro‘yxatini va majburiy jamoat ishlarining

turlarini kelishuv uchun taqdim etish;

jinoyatchilik, terrorizm va diniy ekstremizmga qarshi kurashishga jamoatchilikni keng jalb etish ishlarini tashkil qilish yo‘li bilan qonun ustuvorligini ta‘minlash chora-tadbirlarini amalga oshirish.

III. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasiga doir faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan tavsiyalar.

Respublikada, xususan, Surxondaryo viloyatida mahalliy davlat hokimiyati organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasiga doir faoliyati samaradorligini oshirish maqsadida quyidagilar tavsiya etiladi:

1) “huquqbuzarliklar profilaktikasi kuni”ni hokimliklar tomonidan muvofiqlashtirish amaliyotini yo‘lga qo‘yish;

2) huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish bo‘yicha ishlarni mahalliy davlat hokimiyat organlari tomonidan mahalliy darajada muvofiqlashtirishning huquqiy va tashkiliy-institutsional asoslarini yaratish;

3) kamida har uch oyda tegishli hududdagi huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashishning ahvoli, bu borada tasdiqlangan reja, dastur, yo‘l xaritasi kabilarning ijrosi holati hamda kelgusidagi vazifalarning Xalq deputatlari Kengashlarida tanqidiy muhokama etilishini tizimli tashkil etish;

4) Surxondaryo viloyati hokimligi boshqaruv apparati tarkibidagi “Huquqni muhofaza qilish organlari faoliyati, harbiy safarbarlik va favqulodda vaziyatlar masalalari guruhi” negizida “Jamoat xavfsizligini ta‘minlash: harbiy safarbarlik, favqulodda vaziyatlar va huquqbuzarliklar profilaktikasi masalalari bo‘yicha guruh” faoliyatini yo‘lga qo‘yish va ushbu guruh zimmasiga aniq vazifalarni yuklash, shuningdek xuddi shu singari guruhlarni tuman va shahar hokimliklarining boshqaruv apparatlari tuzilmasida ham tashkil etish va faoliyatini yo‘lga qo‘yish;

5) Surxondaryo viloyati hokimligi boshqaruv apparatining vazifa va funksiyalarini qayta ko‘rib chiqib, ular doirasiga boshqaruv apparatining huquqbuzarliklar profilaktikasiga oid vazifa va funksiyalarni ham qo‘shish yuzasidan “Surxondaryo viloyati hokimligi boshqaruv apparati to‘g‘risidagi nizom”ga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish;

6) Surxondaryo viloyati hokimi va uning o‘rinbosarlari o‘rtasidagi vazifalar taqsimotida ularning zimmasiga egallab turgan lavozimining xususiyatidan kelib chiqqan holda huquqbuzarliklar profilaktikasiga doir vazifalarni yuklash;

7) Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar komissiyalari hamda Bolalar masalalari bo‘yicha tuman (shahar) komissiyalari a‘zoligiga tegishli organ va muassasalarning rahbarlarini emas, balki ushbu organ va muassasalarning aynan bolalar masalalari bo‘yicha mas‘ul xodimlarni jalb etish;

8) huquqbuzarliklar profilaktikasiga doir hududiy dastur loyihasining mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan tayyorlanishi, ko‘rib chiqilishi, tasdiqlanishi hamda ushbu dastur ijrosini ta‘minlashning tashkiliy-huquqiy tartibi va mexanizmlarini belgilash;

9) “huquqbuzarliklar profilaktikasi”, “ijtimoiy profilaktika”, “huquqbuzarliklarning oldini olish”, “huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish”, “jamoat xavfsizligini ta‘minlash” kabi tushunchalarning mazmun-mohiyatiga oydinlik kiritish va shu asosda normativ-huquqiy hujjatlarda huquqiy ta‘riflab, huquqbuzarliklar profilaktikasi amaliyotida ularni amalga oshirishning tashkiliy-huquqiy mexanizmini joriy etish.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.31/30.12.2019.Yu.25.02 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ АКАДЕМИИ МИНИСТЕРСТВА
ВНУТРЕННИХ ДЕЛ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН**

**АКАДЕМИЯ МИНИСТЕРСТВА ВНУТРЕННИХ ДЕЛ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН**

МЕНГЛИЕВ ФАХРИДДИН ВАЛИЕВИЧ

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ОРГАНОВ
ГОСУДАРСТВЕННОЙ ВЛАСТИ НА МЕСТАХ В ОБЛАСТИ
ПРОФИЛАКТИКИ ПРАВОНАРУШЕНИЙ (НА ПРИМЕРЕ
СУРХАНДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ)**

**12.00.14 – Профилактика правонарушений. Обеспечение общественной безопасности.
Пробационная деятельность**

**АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по юридическим наукам**

Ташкент – 2025

Тема диссертации доктора философии (PhD) по юридическим наукам зарегистрирована Высшей аттестационной комиссией при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за В2024.4.PhD/Yu 778.

Диссертационная работа выполнена в Академии Министерства внутренних дел Республики Узбекистан.

Автореферат диссертации размещен на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) на веб-сайте Научного совета (<http://akadmvd.uz>) и Информационно-образовательном портале «Ziyoueto» (www.ziyoueto.uz).


Научный руководитель:	Хужакулов Сибдуш Бахтиёрвич доктор юридических наук, профессор
Официальные оппоненты:	Закирова Адина Гулямовна доктор юридических наук, профессор Зиёдуллаев Музаффар Зиёдуллаевич доктор юридических наук, профессор
Ведущая организация:	Академия государственного управления при Президенте Республики Узбекистан


Защита диссертации состоится 22 мая 2025 года в 14:30 часов на заседании Научного совета DSc.31/30.12.2019.Yu.25.02 по присуждению ученых степеней при Академии Министерства внутренних дел Республики Узбекистан (Адрес: 100197, г.Ташкент, улица Интизор, 68. Тел./факс: (+99871) 265-22-52, e-mail: info@akadmvd.uz).


С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Академии Министерства внутренних дел Республики Узбекистан (зарегистрировано за № AD1571). Адрес: 100097, г.Ташкент, улица Интизор, 68. Тел.: (+99871) 265-22-52.

Автореферат диссертации разослан 10 мая 2025 года.
(протокол реестра № 10 от 10 мая 2025 года).




А.С. Турсунов
Председатель Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор юридических наук, профессор


А.Д. Хусанов
Ученый секретарь Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор философии (PhD) по юридическим наукам, доцент


Ш.А. Кулматов
Председатель Научного семинара при Научном совете по присуждению ученых степеней, доктор юридических наук, профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мире становится объективной необходимостью формирование системы профилактики правонарушений, направленной на укрепление законности, повышение правового сознания и правовой культуры в обществе, надежную защиту прав, свобод и законных интересов личности. Поэтому разработка и внедрение в практику эффективного механизма профилактики правонарушений является одним из приоритетных направлений государственной правовой политики. Согласно статистическим данным о уровне преступности и опасности для жизни в различных странах мира (Crime Index for Country), опубликованным крупнейшей базой данных о городах и странах мира — Numbeo за 2025 год, в 85 из 131 страны (что составляет 64,8%) общий уровень преступности оценён как средний или выше среднего. Из них в 26 странах отмечен высокий риск стать жертвой преступления³. Подобные показатели требуют разработки научно обоснованных новых подходов к усилению взаимодействия между органами, непосредственно осуществляющими и участвующими в профилактике правонарушений, в том числе к системной организации полномочий органов государственной власти на местах в данной сфере.

В мире совершенствование деятельности органов государственной власти на местах по обеспечению профилактики правонарушений в административных территориях, разработка и реализация адресных программ мероприятий в этой области стали актуальным объектом научных исследований. В этой связи особую значимость приобретают исследования, направленные на поиск научно обоснованных решений проблем, связанных с реализацией грантовых проектов, финансируемых за счет органов власти, направленных на борьбу с преступностью, выявление и устранение факторов, угрожающих общественному порядку и общественной безопасности, эффективную организацию деятельности местных государственных органов и местных подразделений правоохранительных органов в сфере профилактики правонарушений, влияющих на криминогенную ситуацию, внедрение новых методов работы в этой области.

В Новом Узбекистане предпринимаются меры по превращению представительных органов местной государственной власти в подлинный «голос народа», трансформации деятельности исполнительных органов и организации территориального управления на основе принципа «служения интересам населения», реализации социальной профилактики в махаллях по принципу «благоустроенная и безопасная махалля», а также по налаживанию целенаправленного сотрудничества государственных органов с институтами гражданского общества⁴. В направлении 4.1 Стратегии «Узбекистан – 2030», утверждённой Указом Президента Республики Узбекистан № УК-158 от 11 сентября 2023 года, предусмотрено формирование государственной власти, служащей народу, и совершенствование общественного управления. А в Постановлении № ПП-1 от 3 января 2025 года определены целевые меры на

³ <https://nonews.co/directory/lists/countries/crime-index>.

⁴ Указ Президента Республики Узбекистан «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы» // <https://lex.uz/docs/5841063>.

2025 год по созданию безопасной среды в махаллях республики и повышению эффективности системы раннего предупреждения правонарушений, а также обеспечение своевременной и результативной реализации мероприятий, предусмотренных региональными «дорожными картами» по стабилизации криминогенной обстановки и внедрению системы профилактики правонарушений на основе новых подходов в махаллях. Ответственность за достижение целевых показателей в этом направлении возложена не только на государственные органы и учреждения, но и персонально на первых руководителей местных хокимиятов. Это свидетельствует о важности проведения научных исследований с целью обеспечения выполнения вышеуказанных задач и внедрения совершенно новых механизмов в деятельность органов местной государственной власти в сфере профилактики правонарушений на основе приоритетной идеи «Все усилия во имя человеческого достоинства».

Настоящее диссертационное исследование в определенной степени служит реализации задач, обозначенных в Конституции Республики Узбекистан в новой редакции (2023), Законах «О государственной власти на местах» (1993), «О профилактике безнадзорности и правонарушений среди несовершеннолетних» (2010), «О профилактике правонарушений» (2014), а также в Указах Президента Республики Узбекистан «О мерах по поднятию на качественно новый уровень деятельности органов внутренних дел в сфере обеспечения общественной безопасности и борьбы с преступностью» (2021), «О мерах по утверждению и реализации Концепции общественной безопасности Республики Узбекистан» (2021) и в Постановлении «О мерах по созданию безопасной среды и дальнейшему повышению эффективности системы раннего предупреждения правонарушений в махаллях республики в 2025 году» (ПП-1, 2025), а также в других нормативно-правовых актах в данной сфере.

